

“OSMON ME’ZONLARDAN YILTIRAR EDI”

Soatova Zarina Otabek qizi
Qarshi MII akademik litseyi o‘quvchisi

Maktab o‘quvchilarida kitobga muhabbat o‘qilgan kitobning sir-asrorini bilgandan keyingina shakllanadi. O‘quvchi badiiy asardan lazzat tuysa, o‘zining zavqini keltirgan tasviriy unsurlarni payqay bilsa, chinakam badiiyat namunasini soxta asarlardan ajrata olish malakasini egallagan bo‘lsagina, kitobxonga aylanadi. Chunki biror asarni o‘qish jarayonida, uni tahlil qilish mobaynida tuyilgan lazzat o‘quvchini boshqa asarlarni o‘qishga, ulardan zavqlanishga undaydi. Xuddi shunday asarlardan biri “Lolazor”dir.

Ilk jumlasining o‘ziyoq yurakka allaqanday iliq va ajib hissiyot baxsh etuvchi “Lolazor” romani Samarqandning ko‘hna Jom qishlog‘ida tug‘ilgan iste’dodli yozuvchi Murod Muhammad Do‘s’t tomonidan yozilgan. Ijodkorning asarlari bilan yaqindan tanish bo‘lgan har bir o‘quvchi uchun esa ushbu asarlar alohida ahamiyatga egaligi shubhasiz. Ayniqsa, adibning yuqorida nomi tilga olingan romani “Lolazor” nafaqat kitobxonlar ichida, balki qalam ahli orasida ham o‘z qadr-qimmatiga ega asardir. Buning sababi sifatida yozuvchining oson o‘qiluvchi so‘zlardan foydalanib, o‘zbek adabiyotining eng ko‘z ilg‘amas jihatlarini ulkan mahorat bilan yoritib bergenligini aytish mumkin.

Asarning umumiyligi mazmuniga e’tibor qaratar ekanmiz, bosh qahramon Nazar Yaxshiboyevning hayot yo‘li diqqatimizni tortmasdan qolmaydi. Voqealar rivoji adabiy tanqidchi va yozuvchi Yaxshiboyev va uning atrofidagi obrazlarning taqdiri bilan bevosita bog‘liq. Avvalo, Yaxshiboyevning eng yaqin do‘sti Oshno (Xorun Kalonov) haqida gapirar ekanmiz, yozuvchi bu ikki obraz va ularning atrofidagi kechmishlar orqali o‘sha davrlardagi kommunistik siyosiy tizimning ichdan yemirilishini yashirin tarzda ifodalab berishiga guvoh bo‘lamiz. Shuning uchun asarni mutolaa qilish jarayonida har bir o‘quvchidan chuqur diqqat va e’tibor talab qilinadi. Ajablanarlisi shundaki, asar naqadar dolzarb mavzuda yozilmasin, undagi voqealar bir xil ritmda kechadi, ya’ni asarning eng quvonchli yoki eng qayg‘uli o‘rinlari deyarli mayjud emas. Menimcha, bu roman navisning tengsiz qobiliyati va nafis didi borligidan yana bir bor dalolat beradi.

Roman Yaxshiboyev va uning yaqin hamkasbi Saidqul Mardonov tomonidan hikoya qilinadi. Bu ikki qahramon munosabatlarida esa xotira muqaddasligi, tarixiy an’ana va urfodatlarga mehr-muhabbat kabi tushunchalar yetakchilik qiladi. Jumladan, Yaxshiboyev yoshligidan dilida tuyib yurgan niyatini (o‘z qo‘llari bilan katta bog‘ yaratishni) do‘sti Saidqul Mardonov bilan birga amalga oshirib, bir umrlik maqsadiga erishadi. Bu bilan ota-bobolarimiz azaldan aytib yuradigan “Yaxshidan bog‘ qolar, yomondan dog”, - degan naqlga amal qiladi. Bundan tashqari, asardagi yana bir hodisa o‘sha davr kishilarining qanchalik mehr-oqibatli bo‘lganligini isbotlaydi. Gap shundaki, ish yuzasidan Moskvaga jo‘nab ketgan Saidqul akani tutingan ukasi Abdujabbor o‘g‘lining to‘yiga taklif qilish maqsadida Toshkentgacha qidirib yo‘qlab kelib, uni bu yerda topa olmagach Moskvaga izlab boradi. Bunchalik fidoyi va oqibatli kishilarga qoyil qolmay ilojimiz yo‘q. Axir, u Saiqul akaga telegramma orqali ham xabar

yuborishi mumkin edi, biroq Abdujabbor bunday qilmaydi. Chunki bu undagi insoniylikka mutlaqo to‘g’ri kelmaydigan jihatdir.

Asar davomida bir-biriga teskari xarakterga ega bo‘lgan yana boshqa obrazlarni ham uchratish mumkin. Xususan, Muhsina xonim, Muyassar, Olloyor, Qurbonoy va Avvalbek singari qahramonlar ruhiyatining xilma-xilligi asarda yaqqol namoyon bo‘ladi. To‘g’ri, asarda ishtirok etgan har bir obraz o‘z xato va kamchiliklariga ega, lekin yozuvchining asosiy maqsadi ularning aybini oshkor qilishdangina iborat emas, balki buning zamirida chuqur falsafa yotibdi. Ya’ni ijodkor asarni o‘qigan har bir kishi obrazlar o‘z hayotida yo‘l qo‘ygan xatolarni to‘g’ri tushunib, ularni takrorlamasin, degan maqsadda shunday qiladi. E’tiborli jihat shuki, asar qahramonlari oxiri o‘z qilmishlaridan pushaymon bo‘lib, ko‘ngil xotirjamligiga erishish uchun qo‘llaridan kelganini qilishga urinishadi. Birgina misol, o‘lim to‘shagida yotgan Yaxshiboyev Saidqul Mardonovga alohida vasiyatnomaga yozib, unda o‘z jasadi ona qishlog‘i Bulduruqda dafn etilishini va hisobidagi o‘n ming so‘m (bu o‘sha davrda katta pul edi!) shu yerdagagi maktab qurilishi uchun sarflanishini aytib o‘tadi. Ushbu vasiyatnomani chin dildan bajo keltirayotgan Saidqul aka dafn marosimi jarayonida quyidagi gaplarni yuragidan o‘tkazar ekan, dunyoning o‘tkinchilagini, uning hech kimga vafo qilmasligini yana bir bor yodga oladi va kitobxonlarga ham eslatib o‘tadi: “Tushundimki, o‘lim degani go‘yo bir libos-u, shu lahzada har kim bu libosni o‘z egnida o‘lchab ko‘ryapti!”

O‘ylashimcha, bu asar shunchaki bir roman emas, u ibratnomadir. Negaki asarning har jabhasi kitobxon yuziga oyna tutib, unda o‘z haqiqatlarini ko‘rsatishga urinayotgandek bo‘ladi. Demak, yozuvchi o‘z maqsadiga erishgan, u o‘z o‘quvchilariga eng muhim saboqlarni berib bo‘ldi. Keyingi harakat esa bizning qo‘limizda. Buning uchun hammamiz o‘z-o‘zimizga xuddi Saidqul Mardonov kabi quyidagi savollarni berishimiz lozim: “Agarda Yaxshiboyevning o‘rnida men o‘zim bo‘lganimda-chi? Agarda men o‘zim Oshnoga oshno bo‘lganimda-chi? O‘sanda ne bo‘lardi?”

Ushbu so‘roqqa vijdonan javob berish har kimning o‘ziga havola. Buning uchun esa, avvalambor, asar matni bilan to‘liq tanish bo‘lish lozim. Xolis o‘quvchi sifatida ushbu asarni mutolaa qilishni har bir izlanuvchan kitobxonga bemalol tavsiya qila olaman va ishonamanki, “Lolazor” adabiy hayotingizning mo‘jaz bog‘iga aylanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xo‘jayev A. Badiiy asar tahlili. “Fanlarni o‘qitishda pedagogik texnologiyalarning o‘rnini” mavzusidagi hududiy ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – Qarshi, 2020.
2. Murod Muhammad Do‘st. “Lolazor”. Roman. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.